

YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING MINTAQAVIY DARAJADA JORIY ETILISHI

Eshmaxmatov Ulug‘bek Erkin o‘g‘li

Qarshi Davlat Universiteti o‘qituvchisi

XXI asrda global iqtisodiy taraqqiyotning yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu konsepsiya iqtisodiy o‘shishni ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy farovonlikni ta‘minlaydigan tizimdir. 2025-yilda dunyo miqyosida ushbu yo‘nalishda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ko‘plab mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha davlat dasturlarini joriy etib, mintaqaviy darajada ekologik islohotlarni kuchaytirmoqda. O‘zbekiston hukumati 2025-yilni “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilgan bo‘lsa, Qirg‘iz Respublikasi “Yashil iqtisodiyot dasturi – 2025–2029”ni qabul qildi. Bu esa yashil iqtisodiyot endilikda nafaqat global, balki mintaqaviy siyosatning ham muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi.

Mintaqaviy darajada yashil iqtisodiyotni joriy etish strategiyasi har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Eng avvalo, davlatlar mintaqaviy darajada maxsus strategiyalar va maqsadli dasturlarni ishlab chiqmoqda. O‘zbekistonda 2025-yilda qabul qilingan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot” davlat dasturi energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash va qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirishga qaratilgan. Mazkur dasturga ko‘ra, 2025-yil yakuniga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya balansidagi ulushi 26 foizga yetkazilishi, 3,5 gigavatt yangi “yashil” elektr quvvatlari ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, 35 mingdan ortiq xonadon va 27 ming ijtimoiy obyektga kichik quyosh panellari o‘rnatilishi belgilangan.

Qirg‘iziston Respublikasida 2025–2029-yillarga mo‘ljallangan Yashil iqtisodiyot dasturi doirasida energiya intensivligini 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirish, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini 25 foizga oshirish hamda degradatsiyaga uchragan yerlarning 30 foizini tiklash vazifasi qo‘yilgan. Qozog‘istonda esa yashil iqtisodiyot indikatorlarini mintaqaviy rivojlanish rejalari bilan integratsiyalash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan, bu esa har bir viloyatda ekologik ko‘rsatkichlar asosida investitsiya siyosatini shakllantirish imkonini bermog‘da.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni bir qator muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Eng asosiy muammo — moliyaviy resurslarning cheklanganligi. Kichik va iqtisodiyoti nisbatan sust mintaqalar uchun yashil texnologiyalarni joriy etish katta xarajatlarni talab qiladi. Texnologik imkoniyatlar va malakali kadrlarning yetishmasligi ham jarayonni sekinlashtiradi. Bundan tashqari, ayrim hududlarda markaziy siyosatlar bilan mahalliy sharoitlar o'rtasida muvofiqlashtirishning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi kuzatiladi. Monitoring va hisobot tizimlarining sustligi esa yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini aniq baholashga to'sqinlik qiladi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasini mintaqaviy darajada joriy etish — nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. 2025-yilgi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston kabi mintaqada davlatlari bu borada muhim qadamlar qo'ymoqda: davlat dasturlari qabul qilinmoqda, qonunlar takomillashtirilmoqda, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy, texnologik va institutsional to'siqlar mavjudligi sababli, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish va moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqish zarur. Agar bu yo'nalishdagi siyosat izchil davom ettirilsa, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda uzoq muddatli barqaror rivojlanishning tayanchiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Uzbekistan has adopted the State Program for the Year of Environmental Protection and the “Green Economy”». YUZ. uz, 10 Fevral 2025.
2. «Uzbekistan expands green economy initiatives to combat climate change». Kun. uz, 10 Yanvar 2025.
3. «Uzbekistan's 2025 Year of Environmental Protection and Green Economy». Eurasian Star, 28 Yanvar 2025.
4. «Uzbekistan Marks the Start of the Year of Environmental Protection and Green Economy with Launch of New Green Initiatives». UNDP Uzbekistan Press Release, 18 Yanvar 2025.
5. «Uzbekistan declares 2025 as the “Year of Environmental Protection and Green Economy”». Kun. uz, 20 Noyabr 2024.
5. «2025 declared as Year of Environmental Protection and Green Economy in Uzbekistan». UzDaily.uz, 20 Noyabr 2024.
7. «Uzbekistan aims to increase share of green energy to 26% in 2025». Report.az, 28 Yanvar 2025.
8. «“Strategy for Transition to a Green Economy for 2019–2030”» (file from UWED).